

NILUFAR PAZIRA IJODIDA SHAXSNING O'ZLIGINI ANGLASH MUAMMOSI

Begimkulova Shaxnoza Axmedovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
E-mail: cool.begimkulova@inbox.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Afg'on-amerika adabiyotining taniqli namoyondalaridan biri adiba Nilufar Paziraning "*A Bed of Red Flowers: In Search of My Afghanistan*" (*Qizil gullar oshyoni: Afg'onistonimni izlab*)" mashxur asarining badiy reallik asoslari ochib berilgan. Undagi real hayotiy voqealar yozuvchining mahorati va o'zlikni anglash kabi savollarga qahramon hayoti orqali ochib berilishiga guvohi bo'lamiz.

Kalit so'zlar: multikulturalizm, Afg'oniston, badiy haqiqat, diaspora, kuptarkiblilik, multi-irq, multi-diniy

ПРОБЛЕМА ПОНИМАНИЯ ЛИЧНОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ НИЛУФАР ПАЗИРЫ

Бегимкулова Шахноза Ахмедовна
Университет педагогики и экономики
E-mail: cool.begimkulova@inbox.ru

Аннотация: В данной работе раскрываются основные художественной реальности знаменитого произведения «Красные розы: В поисках моего Афганистан» Нилуфар Пазيري, одного из великих деятелей афгано-американской литературы. В нем мы становимся свидетелями реальных событий, обогащенных писательским мастерством.

Ключевые слова: мультикультурализм, Афганистан, художественная реальность, diaspora, мультиэтничность, мульти-расовая принадлежность, мультирелигиозность

THE PROBLEM OF UNDERSTANDING PERSONALITY IN THE WORK OF NILUFAR PAZIRA

Begimkulova Shaxnoza Axmedovna
University of economy and pedagogy
E-mail: cool.begimkulova@inbox.ru

Annotation: This work reveals the basic artistic reality of the famous work "*A Bed of Red Flowers: In Search of My Afghanistan*" by Nelofer Pazira, one of the great figures of Afghan-American literature. In this work, we become witnesses of real events, enriched with writing skills.

Key words: multiculturalism, Afghanistan, artistic reality, diaspora, multiethnicity, multiraciality, multireligiousness

KIRISH

O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklari tabiiy ravishda keng meqiyosda o'yg'onish davri, xulosa qilish, ko'p qirrali, qarama-qarshi haqiqatni va undagi shaxsning o'zligini aniqlash kabi urinishlar adabiyotda asarlarda namoyon bo'ldi. AQShning madaniyati adabiyoti oxir oqibat yangilikning boshlanishi, burilish davri, o'tish dvori turli madaniyatlar nazariyasi va amaliyotning jadal rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, asosan xilma-xillik va farq, ko'p tarkibli va boshqa muammolarni qayta ko'rib chiqish bilan shug'ullanadi. Bu juda murakkab madaniy jarayonlar dinamikasining global miqyosda o'sishi, markazlashtirilishi, dunyoning ko'p qirrali modelini yaratish, turli milliy an'analar orasidagi chegaralar va ushbu konsepsiyani qayta ko'rib chiqishni taqozo qildi. Shu bilan birga integratsiya, madaniyatlararo tendensiyalar va globallashuv parchalanish va mahalliyashtirish bilan mutanosib bo'ldi. AQShda yana bir "madaniy urushlar" avj oldi, ularning markazida esa milliy kanon va urf-odatlar joy oldi. Amerika madaniyatidagi birdamlik, rang-baranglik, tafovut muammosi, "o'ziga xos inqilob", nihoyat, multikulturalizm yoki madaniy xilma-xillik kabi tushunchalar joy old. Shu bilan Amerikaning adabiy jarayonida so'nggi yillarda milliy madaniyat rivojida markazdan qochish va turli xil tendensiyalarni yana bir bor maydonga olib chiqish boshlandi. Vaziyat shuni taqozo qilgan sari ya'ni globol darajada "kuptarkiblilik" "multikulturalizm", "multikulturjamiyat", "multikulturali" kabi bir qator tushunchalarpaydo bo'ldi. Bugungi multikulturali jamiyat, ilgari "multi-millat", "multi-etnik", "multi-diniy", "multi-irk" deb atalib kelingan. "Multikulturalizm" terminiXX asrning 60 yillarida Kanadada ilk bor muomalaga kiritilgan bo'lsada, tushuncha mohiyatini amaliyotda keng qo'llovchi AQShda o'tgan asrning 70 yillaridan boshlab keng jamoatchilik tomonidan qo'llanila boshlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotda "multikulturalizm" tushunchasi ko'p munozaralarga duch kelib, adabiyotshunos olimlar doim uning qanday ko'rinishga ega ekanligini yozuvchining asari orqali tahlil qilib kelishmoqda. Misol uchun I.V.Kozlik [1].

-insoniyatning zamonavaiy rivojlanish iyerarxiyasida multikulturalizm muammolarining dolzarbligi;

-multikulturalizm –adabiyotshunoslik tushunchasi emas;

-multikulturalizm kompleks muammo va u yagona bir fan tizimiga taaluqli deb hisoblash noo‘rin.

I.V.Kozlikning fikricha, bu oqim yozuvchilari xalqaro postkolonial adabiyotni ko‘rsatishi sabab ularning ijodini biror bir aniq milliy adabiyotga yunaltirib bo‘lmaydi. AQSH adabiyoti irqiy xususiyatga ega va shu bilan birgalikda u boshqa milliy adabiyotlardan tubdan farq qiladi. Adabiyotda ko‘plab madaniyatlarning ko‘rinishi o‘tgan asrning o‘rtalarida paydo bo‘lib, “multikultura” (multimadaniyat) tushunchasi hamda “multikulturalizm” nazariyasiga asos bo‘la oldi. O.B. Karasik [2] ilmiy izlanishida multikulturalizm tushunchasining asoschilaridan biri M.V. Tolstanovanning multikulturalizmga bergan izohiga ijobiy yondoshadi: “u aksincha fanlararo hodisa, mafkurani, falsafani, badiiy aspektlarni o‘z ichiga oladigan va antropologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisodiyot, pedagogika va nihoyat adabiyotshunoslik sohalarida faoliyat ko‘rsatadi” [3, 45]. Multikulturalizm bugungi kunda faqatgina AQShga tegishli tushuncha emas. U hamma rivojlangan mamlakatlarda jadallik bilan o‘sib bormoqda va hattoki bir-biriga qarama-qarshi madaniyat bo‘lsa ham. Ammo tarixan bu tushunchaning AQShda salmoqli rivojlanganlini tan olish kerak. Sababi, birinchidan koloniyalarning rivojlanishi rekord darajada bo‘lgan, ikkinchidan AQShda ko‘p irq vakillari istiqomat qilgan, uchinchidan Amerika madaniyati hamma vaqt irqiy region muammolariga befarq bo‘lmagan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

XX asrning boshlarida yagona Amerika millati paydo bo‘lib, unga “erituvchi qozon” (“melting pot”) deb metaforik nom berildi. Uning ma‘nosi turli xil irq vakillarini bir qozonda eritib yagona amerika madaniyatini barpo qilish demakdir. Biroq XX asr 50-60 yillarida ko‘proq Amerika madaniyatiga to‘g‘ri keladigan – multikulturalizm konsepsiyasi paydo bo‘ladi. Uning asosiy vazifasi yagona milliy Amerika madaniyati ostida mazkur tendensiya vakillari tegishli madaniyat va unga xos

hususiyatlarni saqlab qolish edi. Multikulturalizm yozuvchilari o'z ijod namunalari bilan umummilliy AQSH adabiyotirivojiga hissa qo'shdilar va birvaqtning o'zida badiiy adabiyot namunalariga o'z etnik koloritini qo'shimcha qilishdi.

S.P.Tolkachev [4,12] Angliya adabiyotida "kross-madaniyat"ning muhojir yozuvchilar ijodida namoyon bo'layotganini o'zining risolasida batafsil yoritib bergan. Adabiyotshunos olimning ta'kidlashicha: "muhojir yozuvchilarhar ikki madaniyatga tegishli ekanliklarinianglayotgan bir vaqtning o'zida har ikkalasiga ham tegishli bo'la olmasliklarni xis qiladilar.Bunda muhojir yozuvchilar oldidagi asosiy vazifaularni o'rab olgan ijtimoiy qobiqni qabul qilish va ayni paytda inkor etishdan iboratdir. Amerika adabiyotida afg'on-amerika diasporasining vakillaridan bulmish ziyoli yozuvchilarning ham o'rni beqiyosdir. Ular orasida ayol yozuvchilaring muvafaqqiyatlari esa adabiyot naqadar chegara bilmas, millat bilmas mo'jiza ekanligini yana bir bor ta'kidlash joizdir. Afg'on ayol yozuvchilaridan Nilufar Pazira va uning "*A Bed of Red Flowers: In Search of My Afghanistan*" (*Qizil gullar oshyoni: Afg'onistonimni izlab*)" o'zlikni anglash va uni har qanday vaziyatda ham saqlab qolishga yaqqol misol bo'la oladi [5]. Afg'onistonda ayol qismati nechog'li og'ir va yukli bo'lishini asarda reallik asosida ko'rsatilgan. Adiba bu asar orqali o'z aksini ko'rsatgan balkim son sanoqsiz afg'on ayollari hamda yer yuzidagi barcha bir xil jabr ko'rgan ayollar haqidadir. Asarda yozuvchi Afg'onistondagi 1978 qonli inqilobdan avvalgi davrdagi oilasining tinch-totuv damlarini esga olib, ichki urushdan oldigi farovon onlarini esga oladi va real voqealar bilan asarida gavdvlvntiradi. Asarning bosh qahramonlaridan Pazira va uning oilasi notinch Afg'nistondan Kandaga ko'chib ketish jarayoni tasvirlangan. Yozuvchi hayot haqiqatiga o'xshash narsa (badiy haqiqat)ni yaratish uchun, hayotiy fakt va hodisalarni o'zining ruhiy duniyosida "qaynatishi", ishlashi, sentizlashtirishi, ya'ni tasavvuri, hayoli, tajribasi, qalbi, dungyoqarashi, tabiati bilan boyitgan va muayyan mavzuga, g'oyaga xizmat qiluvchi eng zarur detallarni, xarakterli va kerakli fakt va hodisalarni tanlagan holda tugallik kasb etgan hayotni yaratishi lozim. Ana shu jumlamizga Nilufar Paziraning asarini misol qila olamiz. Nilufar Pazira o'zining asari haqida oddiygina tilda oddiy isonlar qalbiga yetib boradigan tasvirda yozadi. Asardagi bosh g'oya Vatanni himoya qilish va inson o'zligini saqlab qolish kabilari ko'tariladi.

- “So, how long do you think we should stay in this country, in this terrible war?” asks Jamila.

-“Forever,” my father replies. “Until only one other person is left in this land, I will remain here.”

(-Mamlakatda yana qancha qolishimiz mumkin?

-Butunlay-javob berdi otam. Hech kim qolmasa ham shu yerda qolaman.)

Ko‘rinadiki , badiiy haqiqatning hayotiy tajriba, real faktlar, real kechinmalar yotadi. Yozuvchining vazifasi hayotning aynan nusxasini berish emas, balki bo‘lishi mumkin bo‘lgan hayotni tasvirlash ekan, yozuvchi o‘z boshidan kechirgan va ko‘rgan, eshitgan voqealarni ong va qalb prizmasidan o‘tkazadi. O‘sha davrda bo‘lib mamlakatda qolishi va boshiga tushgan sinovlar uni nechog‘li sinashi o‘quvchiga mohirona yoritib beriladi.. O‘qib turganimizdek Faruka Gavhariy nafaqat olima balki adiba sifatida ham o‘z o‘quvchilariga egadir.

XULOSALAR

O‘qib turganimizdek Nilufar Pazira nafaqat olima balki adiba sifatida ham o‘z o‘quvchilariga egadir. Adiba o‘z shaxsiy hayoti uzra kitobxonga Afg‘onistonda bir oila hayotini siyosiy uyinlarda ham vijdon erkinligini, o‘zlikni saqlab qolganini ko‘rish mumkin.

Adabiyotlar

1. Козлик И. В. Мультикультурализм и методологические проблемы литературоведения. Вестник Томского Государственного Университета. Филология №2. 2009. с41-58
2. Карасик, О.Б. К вопросу о мультикультурализме в современной литературе США / О.Б. Карасик // Вестник Пятигорского государственного лингвистического университета. - 2009. - № 4. - С. 218-221.
3. Тлостанова М.В. Проблема мультикультурализма и литература США конца XX века [Текст] / М.В. Тлостанова. – М.: ИМЛИ РАН, «Наследие», 2000. – 400 с.
4. Толкачев С.П. Мультикультурализм в постколониальном пространстве и кросс-культурная английская литература. Инфор.гум.пор.знан.Поним. Умени. МосГУ: 2013

5. Nelofer Pazira. A bed of red flowers:in search of my Afghanistan.New York.
2005